



## **Symposium on Natural and Applied Sciences**

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING XIZMAT VAZIFALARINI BAJARISH JARAYONIDA HAYOTI VA SOG‘LIG‘IGA YETKAZILGAN ZARAR TUFAYLI VUJUDGA KELADIGAN FUQAROLIK-HUQUQIY MAJBURIYATLAR**

Abdukarimov Shohzod Abduhakim o‘g‘li

IIV Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash  
departamenti, Yoshlar ittifoqi yetakchilar kengashi raisi

#### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlari xizmat vazifalarini amalga oshirish jarayonida ularning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplashning fuqarolik-huquqiy tartibi ilmiy-nazariy asosda kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida xodimga yetkazilgan zararni qoplash institutining huquqiy poydevori, davlatning kafolatlangan javobgarligi hamda zararni qoplashda fuqarolik huquqining umumiy qoidalari bilan maxsus normalarning o‘zaro uyg‘unligi yoritib berilgan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil amalga oshirilib, milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan asosli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini ta’minlash masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** hayot va sog‘liqqa yetkazilgan zarar, fuqarolik-huquqiy majburiyatlar, davlatning fuqarolik-huquqiy javobgarligi, moddiy zarar, ma’naviy zarar, kompensatsiya, ijtimoiy himoya.



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **Аннотация:**

В данной статье на основе научно-теоретического подхода комплексно проанализирован гражданско-правовой порядок возмещения вреда, причинённого жизни или здоровью сотрудников органов внутренних дел при исполнении ими служебных обязанностей. В рамках исследования раскрываются правовые основы института возмещения вреда, причинённого сотруднику, гарантированная ответственность государства, а также взаимосвязь общих положений гражданского права и специальных норм, регулирующих порядок компенсации вреда. Наряду с этим на основе сравнительно-правового анализа зарубежного опыта выработаны обоснованные предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование национального законодательства. Кроме того, с научной точки зрения исследованы вопросы обеспечения социальной защиты сотрудников органов внутренних дел.

**Ключевые слова:** вред, причинённый жизни и здоровью, гражданско-правовые обязательства, гражданско-правовая ответственность государства, материальный вред, моральный вред, компенсация, социальная защита.

### **Abstract:**

This article provides a comprehensive scientific and theoretical analysis of the civil law mechanism for compensation for damage caused to the life or health of internal affairs officers in the course of performing their official duties. The study examines the legal foundations of the institution of compensation for damage to an employee, the guaranteed civil liability of the state, as well as the interaction between the general provisions of civil law and special legal norms governing



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

compensation for such damage. In addition, based on a comparative legal analysis of foreign experience, well-grounded proposals and recommendations aimed at improving national legislation are developed. The article also addresses, from a scholarly perspective, the issues of ensuring social protection of internal affairs officers.

**Keywords:** damage to life and health, civil law obligations, state civil liability, material damage, moral damage, compensation, social protection.

Mazkur maqola ichki ishlar organlari xodimlarining hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplashning fuqarolik-huquqiy tartibda tartibga solinishini o‘rganishga bag‘ishlanganligi sababli, ushbu turdagi majburiyatlarga xos bo‘lgan umumiy qoidalarni yodga olish zarur hisoblanadi. Chunki majburiyatlarning umumiy mazmuni, ularning vujudga kelish asoslari hamda yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning ayrim turlarini bilmasdan turib, tadqiq etilayotgan masalani to‘laqonli va chuqur anglash mumkin emas.

Zarar yetkazilishi natijasida vujudga keladigan majburiyatlar shartnomaviy bo‘lmagan majburiyatlarning alohida turini tashkil etadi. Bunday majburiyatlar shartnoma asosida munosabatda bo‘lgan shaxslar o‘rtasida ham, shuningdek o‘zaro shartnomaviy munosabatlarga ega bo‘lmagan shaxslar o‘rtasida ham yuzaga kelishi mumkin.

Fuqarolik qonunchiligida boshqa shaxsga zarar yetkazish fuqarolik huquq va majburiyatlarining vujudga kelishiga asos bo‘ladigan holatlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Bunda zararli oqibat faqat faol harakatlar natijasida emas, balki muayyan majburiyatlarni bajarmaslik, xususan beparvolik, mehnat xavfsizligi choralari ko‘rmaslik kabi harakatsizlik oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin.



## **Symposium on Natural and Applied Sciences**

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

Zararni qoplash majburiyatining vujudga kelishi uchun faqat zarar yetkazilganlik faktining o‘zi yetarli hisoblanmaydi. Zararni qoplash majburiyati faqatgina zarar yetkazish holati bilan bir qatorda barcha zarur shartlar mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi. Bunday shartlarga huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlikning mavjudligi, ushbu harakat (yoki harakatsizlik) bilan yuzaga kelgan zararli oqibat o‘rtasida sababiy bog‘liqlik bo‘lishi hamda zarar yetkazgan shaxsning aybi kiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan xizmat vazifalarini amalga oshirish jarayonida ularning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar davlat zimmasiga yuklatilgan muhim ijtimoiy-huquqiy majburiyatlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur munosabatlar fuqarolik huquqida alohida tartibga solinadigan institut — davlatning yetkazilgan zarar uchun javobgarligi doirasiga kiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kunduzgi yoki tungi xizmat faoliyatini amalga oshirish jarayonida turli xil baxtsiz hodisalar sodir bo‘lishi, buning natijasida vafot etish hamda tan jarohati olib nogironlik holatiga tushib qolish holatlari uchramoqda. 2022-yilning dastlabki 10 oyi davomida jami 25 nafar ichki ishlar organlari xodimi vafot etgan bo‘lib, ularning 9 nafari yo‘l-transport hodisalari oqibatida, 16 nafari esa xizmat vazifalarini bajarish jarayonida halok bo‘lgan. Bundan tashqari, 284 nafar xodim turli darajadagi tan jarohatlarini olgan, ularning katta qismi jarohatlar oqibatida nogironlik holatiga tushib qolgan yoki sog‘lig‘i sababli xizmatni davom ettirishga yaroqsiz deb topilib, ichki ishlar organlari safidan bo‘shatilgan.

Amaliyotda xodimlarga yetkazilgan zararni qoplash masalalari bo‘yicha sud nizolarining ko‘pligi, kompensatsiya miqdorini belgilash jarayonida huquqiy noaniqliklarning mavjudligi, shuningdek davlat organlarining javobgarlik doiralari yetarli darajada aniq belgilab qo‘yilmaganligi bilan bog‘liq muammolar



## **Symposium on Natural and Applied Sciences**

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

kuzatilmoqda. Darhaqiqat, xodim xizmat vazifalarini bajarish jarayonida jabrlangan holatlarda davlat javobgarligining avtomatik tarzda ishga tushadigan mexanizmi amalda to‘liq va samarali faoliyat ko‘rsatmayotganini alohida ta’kidlash lozim. Mazkur holat esa ichki ishlar organlari tizimida xizmat olib borayotgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi darajasining pasayishiga olib kelmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ibrohimov S.S. Mehnat munosabatlarida hayot va sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash masalalari. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2021.
2. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqi. II qism. Majburiyat huquqi. — Toshkent: TDYU nashriyoti.
3. Ismoilov B.I., Xudoyberdiyev J.B. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik va zararni qoplash muammolari. — Toshkent.
4. Ergashev I., Qodirov B. Zararni qoplash majburiyatlari va ularning fuqarolik-huquqiy xususiyatlari // Yuridik fanlar axborotnomasi.
5. Abdulkarimov F.M. Xodimning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy masalalari // O‘zbekiston yuridik axborotnomasi.